

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ABDUSAMIYEV DILMUROD ABDUG‘ANI O‘G‘LI**

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF  
O‘QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of science (DSc)**

**Abdusamiyev Dilmurod Abdug‘ani o‘g‘li**

Акмеологик yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimi ..... 3

**Абдусамиев Дилмурод Абдугани угли**

Педагогическая система развития профессиональной идентификации учителя начальных классов на основе акмеологического подхода..... 31

**Abdusamiev Dilmurod Abdugani ugli**

The pedagogical system of developing the professional identity of primary school teachers based on the acmeological approach..... 63

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 68

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ABDUSAMIYEV DILMUROD ABDUG‘ANI O‘G‘LI**

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINFI  
O‘QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/Ped695 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida ([www.namspi.uz](http://www.namspi.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta‘lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Fayzullayev Tursunboy**  
Siyosiy fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Temirov Nabijon Sobirovich**  
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Artikova Muxayyo Botiraliyevna**  
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich**  
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik kengashning 2025-yil “9” 12 soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69; e-mail: [info@namspi.uz](mailto:info@namspi.uz)).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (281 - raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “26” 11 kuni tarqatildi.  
(2025-yil “26” 11 dagi 23 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.R.Qodirxonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, k.f.d., dotsent

**S.X.Mutalov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, (PhD), dotsent

**S.X.Abdullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlar va kadrlar tayyorlashdagi yondashuvlardagi tub o'zgarishlar natijasida pedagogik jarayonlarga akmeologik yondashuv hamda innovatsion texnologiyalarni samarali tatbiq eta oladigan o'qituvchilarga talab tobora ortib bormoqda. Ta'lim jarayonida joriy qilinayotgan innovatsion yondashuvlarning natijasi va samaradorligi esa to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchilarning kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishining qay darajada rivojlanganligiga chambarchas bog'liqdir. Sarbon deklaratsiyasi (Sorbonne Declaration), Ta'lim barcha uchun (Education For All (EFA)), Ming yillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals (MDGs)), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum), Lissabon Konvensiyalari, TALIS xalqaro baholash dasturi (Teaching and Learning International Survey) va Erasmus+ (Funded by the European Union) dasturlari akmeologik yondashuv asosida kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish ko'nikmasiga ega o'qituvchilarni tayyorlashning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari pedagogik faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni ta'minlashda, TALIS xalqaro baholash dasturini amaliyotga tatbiq etishda akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash va pedagogik faoliyatga joriy etish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlarida o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari va kasbiy sifatlarini tarkib toptirishga yo'naltirilgan shart-sharoitlarni yaratish, ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish chora-tartiblari hamda raqamlashtirilgan ta'lim muhitini tizimlashtirish yo'lida izchil ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, pedagogik faoliyatning tarkibiy qismlarini kompleks o'rganish asosida o'qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish muammolariga ham alohida e'tibor qaratilib, bu borada chuqur tahlillar va ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Akmeologik yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish, xususan, kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish orqali ularda milliy dunyoqarash, o'zini-o'zi kasbiy anglash, o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirish hamda ergonomik ko'nikmalarini rivojlantirish, SMSC (Spiritual – ma'naviy, Moral – axloqiy, Social – ijtimoiy, Cultural – madaniy) strategiyasi asosida samarali pedagogik faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini o'zida mujassam qilgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning pedagogik tizimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasida maktab ta'lim tizimining hozirgi rivojlanish bosqichi ta'lim mazmun-mohiyatini modernizatsiyalash, o'qitish metodikalarini modifikatsiyalash va uning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan sifat jihatidan yangi talablarni ilgari surmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha

---

<sup>1</sup> John Viner. Providing for Pupils' SMSC Development: Identify opportunities and implement a whole school strategy. – UK, Optimus education. – 2013

mo'ljallangan Konsepsiyasi"<sup>1</sup> to'g'risida farmonida "uzluksiz ta'lim mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, shuningdek, yuqori darajadagi professional pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning kasbiy mahoratini oshirish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish" asosiy strategik yo'nalishlar sifatida belgilangan. Bu vazifalarni samarali amalga oshirish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy o'zligini anglash va bu boradagi faoliyatini yanada rivojlantirishda akmeologik yondashuvni maqsadli va izchil qo'llash zarurati vujudga keladi. Mazkur jarayon boshlang'ich sinf o'qituvchilarining professional faoliyatida reproduktiv, produktiv, qisman izlanuvchan va kreativ darajalarni har tomonlama shakllantirishni kafolatlaydigan pedagogik tizimni yaratish va uning didaktik imkoniyatlarini yanada boyitish orqali amaliy jihatdan muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Ushbu hayotiy zarurat tadqiqot ishimiz uchun turtki bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"<sup>2</sup>gi PF-60 son, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"ni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonlari, 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-231-son, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son, 2017-yil 26-sentabrdagi "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3289-son Qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar mazkur dissertatsion ishimiz uchun nazariy, ilmiy va metodologik asos hisoblanib, rasmiy va me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.** Bugungi tez fursatlarda jadal rivojlanib borayotgan ta'lim sohasida o'qituvchilarning kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishning metodologik va ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, samarali kasbiy faoliyatni tashkil etishga akmeologik yondashuvning pedagogik tizimlarini ishlab chiqish va natijalarini obyektiv baholash bo'yicha tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va xalqaro dasturlari, jumladan, o'qitish natijalari (Learning outcomes), ta'lim sifati kafolati (Quality Assurance), ta'lim sifati kafolatining Yevropa reyestiri agentligi (EQAR), TALIS

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"ni tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

(Teaching and Learning International Survey) o'qituvchilar faoliyati, ish sharoiti va maktabdagi ta'lim muhitini baholashga qaratilgan eng yirik xalqaro tadqiqot, Erasmus+ (Funded by the European Union) Yevropa Ittifoqining ta'lim, o'qitish, yoshlar va sport sohalarida loyihalar, hamkorlik, tadbirlar va mobillikni qo'llab-quvvatlash dasturi, STEAM (S – Science (Fan), T – Technology (texnologiya), E – Engineering (Muhandislik), A – Art (San'at), M – Mathematics (Matematika) xalqaro o'qitish dasturlari doirasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish muammosi bo'yicha quyidagi ilmiy natijalar olingan: boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishga qaratilgan Xalqaro taraqqiyot tadqiqot markazi tomonidan GPE – KIX (Ta'lim sohasidagi bilimlar va innovatsion almashuv bo'yicha global hamkorlik), KOICA dasturi doirasida Koreyaning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida davlat maktablari o'qituvchilari o'z kasbiy salohiyatlarini oshirish imkoniyatlari yo'lga qo'yilgan, ETS (Educational Testing Service). TOEFL (Test of English as a Foreign Language), SAT (Scholastic Aptitude Test) I, SAT (Scholastic Aptitude Test) II, GRE (Graduate Record Examinations) Subject Test, ACT (American College Testing), GMAT (Magistratura bosqichi), GPA (Grade Point Average).

Bugungi kunda o'qituvchilarning kasbiy malakasi hamda shaxsiy sifatlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar keng qamrov kasb etib, ushbu tadqiqotlar doirasida kasbiy o'zlikni anglash darajasini oshirish bo'yicha turli uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, ta'lim-tarbiya jarayonining mazmunan boy va innovatsion asosda tashkil etilishi, o'qituvchining kasbiy rivojlanishida akmeologik nazariyalar asosida ilg'or tajribalarni tatbiq etish bilan uyg'unlashmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Sharq allomalaridan Abu Rayhon Beruniy, Jaloliddin Davoniy, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Jaloliddin Rumi, Abu Nasr Farobiy asarlarida o'qituvchilik kasbi, o'qituvchida mujassam bo'lishi kerak bo'lgan xislatlar to'g'risidagi qarashlarini ko'rish mumkin. Respublikamiz olimlaridan O.Musurmonova, R.Safarova, M.Mirsoliyeva, G.H.Tillayeva, X.A.Shayxova, B.Ziyomammedov, F.Umarova, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, O'Q.Tolipov, S.T.Turg'unov, Sh.Mardonov, Q.Sh.Mardonov, O'M.Asqarova, N.Erkaboyeva, B.Xodjayev, N.Abdullayeva, M.A.Yo'ldoshev, M.I.Toshpo'latova, D.O.Ximmataliyev, N.Xalilova, E.M.Alkarov, M.J.Shodiyeva, G.Ernazarova, F.A.Berdibekova va boshqalar akmeologik yondashuv asosida o'qituvchilarda kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning turli masalalari bo'yicha o'z tadqiqotlari doirasida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan V.A.Slastyoning, Ye.A.Klimov, M.N.Ribnikova, S.A.Drujilov, L.I.Katayeva, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, L.B.Shneyder, A.E.Emilbekova, E.F.Zeer, L.M.Mitina, T.V.Kudryaytsev, R.V.Demyanchuk, V.I.Andreyev, G.I.Boinchanu, N.F.Il'ina, E.V.Abazovik va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg'or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan

texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliy jihatdan sinovdan o'tkazish masalalari yoritilgan.

Steyn, G.M., Fernandez, C., Noe, R.A., Siemens, G., & Long, P., Clark, R.E., & Mayer, R.E., Craig, G.J., Baucum D., Alfred F. Havighurst. , Fichman, R. kabi xorijiy mamlakatlar olimlarining tadqiqotlarida ham ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirishda akmeologik yondashuvni qo'llash, kasbiy-pedagogik yetuklikni rivojlantirish jarayonidagi muammolarini hal etish hamda o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy sifatlarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etilgan.

Biroq, mavjud ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili, o'qituvchilarning amaliy faoliyatini samarali tashkil etish holati va fanlarni o'qitish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatiga oid empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, akmeologik yondashuv asosida ularning kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni rivojlantirishga qaratilgan kompleks pedagogik tizim hali yetarli darajada ilmiy o'rganilmagan va kasbiy amaliyotiga to'laonli joriy etilmagan. Shu bois, bu masala chuqur ilmiy tahlil va tadqiqotni talab etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining B.M-24 "Pedagogik ta'lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning modifikatsion pedagogik modelini ishlab chiqish;

boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;

boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirish;

akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning akmeopedagogik tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish jarayoni tanlangan bo'lib, tajriba-sinov ishlarida Xorazm, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari umumiy o'rta ta'lim maktablarining 434 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** boshlang'ich sinf o'qituvchilarida akmeologik yondashuv asosida kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirish tizimi, mazmuni, modeli va texnologiyasi tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida mavzuga doir manbalar, DTS, malaka talablari, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasb standartlari, boshlang'ich ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va dasturlari, o'quv-me'yoriy hujjatlari, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarini o'rganish va tahlil qilish; boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini pedagogik kuzatish, kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish darajalarini anketa savolnomalari, psixodiagnostik metodikalar, modellashtirish, ekspert baholash hamda tadqiqot natijalarini aniqlashda matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotining ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

akmeologik yondashuv asosida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik-psixologik determinantlari boshlang'ich sinf o'qituvchilarining profi-akademik faoliyati tahliliga qaratilgan intellektual va ijodiy o'sish akme kartalarni kreativ kollaboratsiya jarayonida o'zini-o'zi tashxislash ustuvorligida qo'llash asosida aniqlashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi anglashni rivojlantirishning funksional modeli kasbiy kompetensiyaning tayanch, umumiy va maxsus darajalarida identifikatsiyaning kreativ, kommunikativ, mobilizatsiya funksiyalarini pedagogik qadriyatlarga yo'naltirilgan prognostik mo'ljalda personal optimallashtirish asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish texnologiyalari o'qituvchilarda o'z-o'zini anglash va baholash ko'nikmalarini hamkorlikka asoslangan interaktiv jarayonda intensiv shakllantirishga qaratilgan autogen mashqlarni kasbiy rivojlanish maydonining avtokorreksiya instrumentlarida individual moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning didaktik ta'minoti profi refleksiya trayektoriyasida individual yo'nalishlari tahlilini kasbiy o'sishni ta'minlaydigan ijtimoiy-emotsional-ijodiy laboratoriya topshiriqlari bilan dinamik uyg'unlini didaktik kontekstda ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning akmeopedagogik tizimini takomillashtirishga o'quv jarayonida mentorlik va fidbek uslublarida brain storming va story telling texnikalarini mobil metodik refleksiya qo'llash orqali erishilishi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari asosida kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirishning tashkiliy-didaktik xususiyatlarini asoslashga doir tavsiyalardan "Boshlang'ich sinf o'qituvchisining akmeogrammasi" ishlab chiqilgan;

akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirishning "O'qituvchilarda kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari" nomli metodik qo'llanma ishlab chiqilgan;

akmeologik yondashuv asosida o'qituvchilarda kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishga oid tavsiyalar "60110400 – Boshlang'ich ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishi Malaka talablari mazmuniga singdirilgan;

boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini belgilashga imkon beruvchi "akme-karta"lar ishlab chiqilib, o'qituvchilar faoliyatiga tatbiq etilgan;

boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishning rivojlanganlik darajalarini aniqlash mezonlari va diagnostik tizimi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotning metodologik bazasi yetarli darajada ta'minlangani, nazariy hamda amaliy ma'lumotlar ishonchli rasmiy manbalar asosida tanlab olingani, empirik yo'l bilan to'plangan miqdoriy ko'rsatkichlar matematik statistikaning zamonaviy va ishonchli usullari yordamida chuqur tahlil qilingani, ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalar vakolatli ilmiy-pedagogik tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani mazkur tadqiqotning ishonchliligi va amaliy ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirishga yo'naltirilgan funksional model, kompleks pedagogik tizim va ularni amaliyotga joriy etishning nazariy-metodik asoslari ishlab chiqilib, ushbu tizimning tuzilishi metodologik yondashuvlar bilan boyitilgan, baholash mezonlari, diagnostika texnologiyasi va rivojlanish dinamikasini aks ettiruvchi indikatorlar takomillashtirilgan. Tadqiqot jarayonida ilgari surilgan akmeologik yondashuv orqali kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirish muammosiga ilmiy yechim topilib o'qituvchilarning kasbiy o'sishi, o'zini-o'zi anglash va pedagogik faoliyatda samaradorlikni oshirish kabi omillarini aniqlash imkoniyati aniqlashtirilgan. Shuningdek, umumta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatni shaxsiy o'sishga yo'naltirilgan, uzluksiz va dinamik jarayon sifatida tashkil etishga, o'qituvchilarda refleksiv tahlil, o'zini-o'zi rivojlantirish va nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga oid ilmiy asoslangan tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa shundaki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirishga doir bosqichli yondashuv (jumladan: o'zini kasbiy jihatdan yutuqlarini anglash, kasbiy va shaxsiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish hamda ular asosida amalga oshirilgan rivojlanish harakatlari natijalarini baholash) asosida maxsus pedagogik dastur ishlab chiqilgan. Mazkur dastur kasbiy-pedagogik faoliyatni zamonaviy talablarga mos ravishda modernizatsiyalash, o'qituvchining nazariy va amaliy jihatdan o'z imkoniyatlarini oshirish ehtiyojini kuchaytirish, kasbiy yutuqlarni boyitishga asoslangan texnologiyalarni o'z faoliyatiga joriy etish orqali ularning kasbiy identifikatsiya qilishini tizimli rivojlantirish shart-sharoiti ta'minlangan. Tadqiqotda ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va texnologiyalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirish uchun amaliy qo'llanma bo'lib, ushbu pedagogik imkoniyatlar nafaqat o'qituvchining kasbiy o'sishini, shu bilan birga ta'lim sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning didaktik ta'minoti profi refleksiya trayektoriyasida individual yo'nalishlari tahlilini kasbiy o'sishni ta'minlaydigan ijtimoiy-emotsional-ijodiy laboratoriya topshiriqlari bilan dinamik uyg'unlari didaktik kontekstda ta'minlash asosida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-metodik takliflar "60110400 – Boshlang'ich ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishining Malaka talabi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 11-apreldagi 02/01-01-128-son malumotnomasi). Natijada, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi asosida kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mahoratini takomillashtirishning konseptual asoslari takomillashtirilgan.

akmeologik yondashuv asosida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik-psixologik determinantlari boshlang'ich sinf o'qituvchilarining profi-akademik faoliyati tahliliga qaratilgan intellektual va ijodiy o'sish akme kartalarni kreativ kollaboratsiya jarayonida o'zini-o'zi tashxislash ustuvorligida qo'llash asosida aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalardan umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini sifatli tashkil etish hamda kasbiy yutuqlarini oshirish imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan asoslangan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2025-yil 27-iyundagi 01/11-10-411-son ma'lumotnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlari boshlang'ich ta'lim imkoniyatlariga mos holda aniqlashtirilgan.

boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi anglashni rivojlantirishning funksional modeli kasbiy kompetensiyaning tayanch, umumiy va maxsus darajalarida identifikatsiyaning kreativ kommunikativ, mobilizatsiya funksiyalarini pedagogik qadriyatlarga yo'naltirilgan prognostik mo'ljalda personal optimallashtirish asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan Oliy ta'lim muassasalarining 60110500 – Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda №446355-sonli nashr ruxsatnomasi). Natijada, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishning nazariy asoslari, ilmiy tadqiqot yo'nalishlari, amalga oshirish haqida tushunchaga ega bo'lish imkoniyati ta'minlandi.

boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish texnologiyalari o'qituvchilarda o'z-o'zini anglash va baholash ko'nikmalarini hamkorlikka asoslangan interaktiv jarayonda intensiv shakllantirishga qaratilgan autogen mashqlarni kasbiy rivojlanish maydonining avtokorreksiya instrumentlarida individual moslashtirish asosida takomillashtirishga doir tavsiyalardan boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash konsepsiyasi mazmuni boyitilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 2025-yil 13-iyundagi 11-05-3837/4-son ma'lumotnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar, didaktik imkoniyatlar hamda ushbu jarayonni ta'minlovchi pedagogik tuzilma ilmiy asosda takomillashtirildi.

akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning akmeopedagogik tizimini takomillashtirishga o'quv jarayonida mentorlik va fidbek uslublarida brain storming va story telling texnikalarini mobil metodik refleksiyada qo'llash orqali erishilishini dalillashga doir takliflardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil mart va aprel oylarida efirga uzatilgan "O'zbekiston – 24" ijodiy birlashmasi "O'zbekiston" teleradiokanali tomonidan tayyorlagan "Ta'lim va taraqqiyot", "Bolalar va biz", "Adabiy jarayon", "O'zbekiston yoshlari" nomli dasturlar senariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi «O'ZBEKISTON 24» ijodiy birlashmasi» davlat muassasasining 2025-yil 21-oktabrdagi № 05-09-1656-son son ma'lumotnomasi). Natijada, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni kasbiy qadriyat sifatida tarkib toptirishning metodik asoslari takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan, 1 ta darslik, 1 ta monografiya, 1 ta metodik qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan, 13 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 252 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining maqsad, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlarga mosligi va tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi bayon etilgan. Shuningdek, ushbu qismda tadqiqot ishining tuzilishi haqida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **"Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik-psixologik adabiyotlarda o'rganilishi va ularda bildirilgan fikrlarga munosabat bildirilgan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish muammosining amaliyotdagi holati yoritib berilgan.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ta'lim sifatini rivojlantirishga doir vazifalar belgilab qo'yilgan bo'lib, bunday vazifalar jahon ta'lim tizimida o'qituvchilar raqobatbardoshligini ta'minlash va milliy ta'lim sifatini oshirishni o'z ichiga qamrab oladi. Belgilangan

maqsadlarga o'quv jarayonida yangi usullarni ishlab chiqish va joriy etish, yangi texnologiyalarni qo'llash orqali erishish mumkin. Bu esa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish orqali shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirish, ijodiy faoliyatlarini rag'batlantirish, faol kasbiy jarayonni tashkil etish, shuningdek, kasbiy faoliyatda egallashi lozim bo'lgan kasbiy malakalarini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarini taqozo qiladi.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ko'p jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni rivojlantirish shart-sharoitlarini yaratish, kasbiy mahoratlarini baholash tizimini ishlab chiqish, kasbga rivojlanishga moyilligini ta'minlovchi pedagogik muhitni hosil qilish hamda o'z kasbga doir bilim, ko'nikma va malakalarini, pedagogik qobiliyatlarini tizimli rivojlantirishni taqozo etadi. Chunki, o'qituvchi faoliyatining natijalari, birinchi navbatda, o'quvchilarning ta'lim olish natijalari, o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyati natijasida namoyon bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchining kasbiy identifikatsiyasining rivojlanganligi uning o'zini-o'zini shaxsiy va kasbiy rivojlantirishi va tarbiyalashining asosiy dinamik manbasi hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti nuqtai nazaridan "akmeologiya", "akmeologik yondashuv", "identifikatsiya", "kasbiy identifikatsiya", "o'zini-o'zi kasbiy identifikatsiya qilish", "o'zini-o'zi baholash", "o'zini-o'zini rivojlantirish" kabi tushunchalari mazmunan bir-biri bilan bog'liq bo'lib, o'qituvchilarda kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha, kasbiy identifikatsiya – bu murakkab integral jarayon bo'lib, shaxsning kasbiy rivojlanishining yetakchi xususiyati, u tanlangan kasbiy faoliyatda o'zini-o'zi anglash va rivojlantirish vositasi sifatida qabul qilish darajasini, o'z kasbiy jamoasida o'zini bilan o'zligini anglash va uni baholashidir.

Kasbiy shakllanishni davrlashtirish masalasiga turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, T.V.Kudryavsev shaxsning kasbiy rivojlanishga nisbatan munosabati va faoliyatini amalga oshirish darajasi mezoniga ko'ra, kasbiy rivojlanishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatgan:

- 1) kasbiy o'sishga nisbatan moyillikning paydo bo'lishi va shakllanishi;
- 2) kasbiy ta'lim va kasbiy rivojlanishga tayyorgarlik ko'rish;
- 3) kasbiy yutuqlarni oshirish, jamoada o'z o'rnini topishga faol intilish;
- 4) kasbiy mehnat faoliyatida shaxsning o'zini to'liq namoyon etishi.

T.V.Kudryavsev tomonidan tadqiq etilgan kasbiy faoliyatda rivojlanish bosqichlarida, mutaxassisning kasbiy rivojlanishga moyilligini aniqlash va shakllantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Nazarimizda, T.V.Kudryavsev fikrlarida asos bor. Chunki, mutaxassis tanlagan kasbida natija ko'rsatishga moyilligi, qiziqishi va ishtiyoqi kuzatilmasa u ushbu kasbda muvaffaqiyatga erishishi hamda ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritish ehtimoli pasayib boradi.

Professor olimasi Matluba Shodiyeva o'zining tadqiqot ishida, "Akmeologik yondashuv – bu insonning rivojlanishi, uning shaxsiy va kasbiy shakllanishi, yuqori marralarni egallash qonuniyatlarini qayd etib, o'qituvchining o'z faoliyatida erishgan eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'limini tashkil etish, ularni kasbiy rivojlantirishda akmeologik

yondashuvni qo‘llash samarali kasbiy va metodik tayyorgarlik, yuqori natijalarga erishish, ularda “akmeologik moyillik”ni rivojlantirish, ijodiy potensialni rag‘batlantirish, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash va ulardan unumli foydalanishni ta‘minlaydi”, – deb izohlaydi.

M.Shodiyevaning fikrlari o‘rinli bo‘lib, xuddi shunday fikrlar psixolog, sotsiolog va filosoflar tomonidan ham bildirilgan. Jumladan, falsafa fanlari doktori, professor Qiyomiddin Nazarov “Jahon falsafasi Qomusi” kitobida akmeologiya borasida quyidagicha asosli fikrlarni keltiradi: “akmeologiya insonning kasb-hunar jarayonida eng yuksak bosqichlarga yetish muammolarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, insonning yetuklik, ijod cho‘qqisi, kamolot va mukammallik darajasiga yetgan davri va rivojlanish jarayonini o‘rganadi”, – deydi.

Bizningcha, akmeologik yondashuv – bu o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishining eng yuqori cho‘qqilariga (akme) erishish qonuniyatlarini o‘rganuvchi, uning kasbiy va shaxsiy imkoniyatlarini ochib beruvchi hamda pedagogik faoliyatda shaxsiy potensialidan maksimal darajada foydalanishni ta‘minlovchi ilmiy-metodik yondashuvdir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilar belgilandi:

1. Maktab muhitining texnik va raqamli jihatdan yetarli darajada ta‘minlanganligi – eksperimental maktablarda zamonaviy o‘quv laboratoriyalari, kompyuterlar, tezkor internet tarmog‘i, raqamli ta‘lim resurslari va multimediyaviy vositalar bilan jihozlangan muhit mavjudligi o‘qituvchilarning yangi metodlarni sinovdan o‘tkazishi uchun qulay imkoniyat yaratadi.

2. O‘qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari – zamonaviy texnika vositalaridan, xususan interaktiv metodlar, raqamli dasturlar, virtual laboratoriyalar, elektron testlar va masofaviy o‘quv platformalaridan foydalanish malakasining mavjudligi kasbiy o‘zini-o‘zi identifikatsiya qilishda platformalardan samarali foydalanishlariga xizmat qiladi.

3. Akmeologik yondashuv tamoyillariga tayangan holda o‘qituvchilar bilan maqsadli ishlash – pedagoglarning kasbiy o‘zligini mustahkamlash, kasbiy faoliyatda o‘zini anglash, shaxsiy salohiyatni to‘liq ro‘yobga chiqarishiga yo‘naltirilgan metodik va amaliy tadbirlar: master klasslar, ochiq suhbatlar, o‘zaro dars kuzatishlar, jamoaviy muhokamalar tashkil etilishi natijadorlikni kafolatlaydi.


4. “Ustoz-shogird” tizimining samarali joriy etilishi – yosh o‘qituvchilarni o‘zini-o‘zi kasbiy identifikatsiya qilishga jalb qilinishi, ularga tajribali mentorlar tomonidan individual maslahat va metodik yordam ko‘rsatilishi shular jumlasidan.

Pedagog-psixolog olimlar kasbiy identifikatsiyaning turli jihatlarini chuqur tadqiq etganlar. B.G.Ananyev o‘zini anglash va baholashning shaxsiy rivojlanishdagi ahamiyatini asoslagan. L.I.Bojovich yoshga bog‘liq xususiyatlar va “Men-obrazi” uyg‘unligi kasbiy shakllanishda muhimligini ta‘kidlagan. L.S.Vigotskiy ong va o‘zini anglash o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda ijtimoiy muhitning rolini ochib bergan. I.S.Kon o‘zini anglashning tarkibiy qismlarini – identifikatsiya, baholash va refleksiyaning aniqlagan. A.N.Leontyev bu jarayonni faoliyat bilan bog‘lagan. V.S.Merlin individual psixofiziologik xususiyatlarning

rolini ko'rsatgan. S.L.Rubinshteyn o'zini anglashning dinamik tabiatini asoslagan. A.G.Spirkin esa uning falsafiy-psixologik mohiyatini yoritgan.

O'zini-o'zi kasbiy tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlarini birlashtirish orqali o'zini-o'zi kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirish maqsadga muvofiqligi namoyon bo'ladi. Jumladan, rivojlangan muloqot qobiliyatlari bilan birgalikda o'zaro kasbiy tajriba almashish shart-sharoitlarining vujudga kelishi. O'zgalarga, ularning his-tuyg'ulariga, harakatlariga, fikrlariga nisbatan tahliliy munosabatni shakllantirish orqali o'zining xatti-harakatlarini nazorat qilish. Kasbiy natijalarni oshirish maqsadida fiziologik nuqtai nazardan tizimli jismoniy mashq qilish va unga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish hamda amaliy psixologiya va muloqot psixologiyasi sohasida maxsus ko'nikmalarga ega bo'lish orqali kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni rivojlantirish tizimi takomillashtiriladi.

Kasbiy o'zlikni anglash – kasbiy faoliyatda o'qituvchining o'z xatti-harakatlarini to'g'ri boshqarish va kasbiy muvaffaqiyatga erishishning shaxsiy yo'nalishini belgilash jarayonidir. Kasbiy o'zlikni anglash kasbiy maqsadning tarqoqligini belgilanuvchi vaziyatda o'z qarashlarini ishlab chiqishgacha bo'lgan jarayonni taqozo etadi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. O'qituvchilarda kasbiy o'zini-o'zi anglash va baholash faoliyatining o'zaro uyg'unlashuvi**

Bizningcha, pedagogik faoliyatni samarali va natijador tashkil etish, o'qituvchining kasbiy muhim sifatlarini o'zlashtirishi, faoliyatida yutuqlarini ko'paytirishi, kasbiy faoliyatidan qoniqish hissining paydo bo'lishida o'zini-o'zi kasbiy anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda pedagogik faoliyatning tarkibiy tuzilmasi va shunga mos ravishda o'qituvchining

kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishini rivojlantirishning o'ziga xos tuzilishi belgilab olindi:

1. O'qituvchining kasbiy muvaffaqiyatga erishishini rag'batlantiruvchi motivatsion omillar tizimining mavjudligi.

2. Pedagogik faoliyatning strategik maqsadlari va o'qituvchining kasbiy rivojlanish harakatlarining shunga muvofiq amalga oshirilishi.

3. Kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishning mazmuni va mohiyati, shuningdek, uning ustuvor yo'nalishlari majmuasi.

4. Kasbiy yutuqlarga erishish uchun belgilab olingan vazifalarni samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod, vosita va shakllar.

Pedagogik faoliyat natijasida kutiladigan yakuniy ko'rsatkichlar va ularni baholovchi samaradorlik mezonlari.

Demak, kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish o'qituvchining pedagogik faoliyatini, o'zaro muloqotini va shaxsiyatining o'ziga xosligi bilan belgilanadigan ma'lum bir motivatsiya ta'siri ostida rivojlanadi.

Dissertatsiyaning **“Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik mazmuni”** deb nomlangan ikkinchi bobida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish vazifalari va bosqichlari, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning yosh va kasbiy tajriba bilan bog'liq xususiyatlari hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishga oid xalqaro tajribalar bayoni keltirilgan.

Kasbiy identifikatsiya qilishning to'liq namoyon bo'lishi nafaqat kasbni puxta egallash va kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishi, shu bilan birga hamkasblari tomonidan mutaxassis sifatida tan olinishi ham muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik faoliyatlarining o'ziga xosligini inobatga olib, ularning kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishining rivojlanish dinamikasini ko'rib chiqamiz:

*Past darajada* o'qituvchi o'z kasbiy imkoniyatlarini yetarlicha anglamaydi, kasbiy rivojlanishga nisbatan yuzaki munosabatda bo'ladi. U o'z imkoniyatlari va yutuqlarini tahlil qilmaydi, yutuq va kamchiliklarini qiyosiy tahlil qilmaydi. Bu bosqichda kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni rivojlantirishga oid aniq maqsad va strategiyalar shakllanmagan bo'ladi.

*O'rta darajada* o'qituvchi kasbiy faoliyatini tahlil qila boshlaydi, yutuq va kamchiliklarini qisman refleksiv baholaydi. U kasbiy maqsadlarni belgilashga intiladi, biroq ularga erishishda izchillikka rioya qilmaydi. Mustaqil qaror qabul qilish va faoliyatni optimallashtirishga urinadi. Bu davrda o'qituvchi kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishini anglaydi, biroq o'zini-o'zi kasbiy identifikatsiya qilish jarayoni tizimli amalga oshirilmaydi.

*Yuqori darajada* esa o'qituvchi kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni to'liq anglaydi va uni rivojlantirishga faol kirishadi. O'z faoliyatini muntazam tahlil qiladi, yutuq va kamchiliklarini asosli baholaydi hamda rivojlanish strategiyasini mustaqil belgilaydi. Innovatsion va ijodiy yondashuvlardan samarali foydalanadi. O'zini nafaqat dars jarayonida, balki pedagogik jamoa va ilmiy-uslubiy faoliyatda ham yetuk mutaxassis sifatida tahlil qiladi. Bu bosqichda u

shaxsiy va kasbiy kamolotning eng yuqori cho‘qqisiga – “akme” darajasiga intiladi.

Kasbiy identifikatsiya qilish jarayoni izchil va tizimli yondashuvni talab qiladi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi (1-jadvalga qarang):

**1-jadval**

**Kasbiy o‘zini-o‘zi identifikatsiya qilishni rivojlanish bosqichlari va uning mazmuni**

<b>Kasbiy identifikatsiyaning rivojlanish bosqichlari</b>	<b>Mazmuni</b>
1. Boshlang‘ich (motivatsion) bosqich	Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida o‘zini-o‘zi tahlil qilish orqali kasbiy yutuqlari va imkoniyatlarini oshirishga nisbatan ehtiyoj paydo bo‘ladi. Ushbu bosqichda tajribali o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini kuzatish, erishgan yutuqlarini tahlil qilish ko‘nikmasini shakllana boshlaydi.
2. Integrativ (moslashtirish) bosqichi	Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘zining kasbiy rivojlantirish strategiyalari va ma’lum darajada kasbiy yutuqlarga erishgan o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanish yo‘lidagi xatti-harakatlarini kuzatadi hamda o‘zini kasbiy rivojlantirish maqsadida ulardan foydalanadi.
3. Stabilizatsiya (barqarorlashuv) bosqichi	Ushbu bosqichda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy o‘zini-o‘zi identifikatsiya qilish usullariga ega bo‘ladi. O‘zining kasbiy faoliyatini muntazam tahlil qilib, erishgan yutuqlari va natijalarini monitoring qilib boradi. Pedagogik jamoada o‘z o‘rnini egallagan, yosh o‘qituvchilarga namuna bo‘la oladigan tajribali pedagog sifatida gavdalanadi.
4. Professional yetuklik bosqichi	Bu bosqichda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy o‘zini-o‘zi identifikatsiya qilishning “akme” darajasiga chiqadi. Bunda o‘qituvchi har bir xatti-harakatini nazorat qilish, kasbiy rivojlanish uchun istiqbolli rejalarini tuzish hamda ushbu rejalar asosida o‘zining kasbiy faoliyatini amalga oshirishga erishadi. O‘qituvchining har bir harakati ma’lum bir natijadorlikni kasb etadi.

Kasbiy identifikatsiya qilish shaxsiy taraqqiyot va ijtimoiy mas’uliyatning uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadigan murakkab va ko‘p tomonlama jarayondir. Kasbiy identifikatsiya qilishning to‘laqonli shakllanishi uchun pedagog o‘z kasbiy nuqtai nazarini mustahkamlashi, kasbiy rivojlanish va natijalarga erishishni pedagogik faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri sifatida anglab yetishi va uni kasbiy qadriyatlar tizimiga integratsiyalashi zarurdir.

Ta’limga oid xalqaro tajribalarning natijalariga asoslanib o‘qituvchilarda kasbiy muvaffaqiyatga erishishga oid qator ilmiy tadqiqot ishlari va tajribalari amalda qo‘llanilib kelinmoqda. Jumladan, TALIS – turli mamlakatlarda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning xalqaro qiyosiy tahliliga asoslangan tadqiqot bo‘lib, Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan ta’sis etilgan.

TALISning asosiy vazifalari:

- pedagogning ijtimoiy mavqeyini oshirish;
- pedagogika mutaxassisligi uchun iqtidorli yoshlarni tanlash;
- moderator o‘qituvchilarni tanlash;
- uzluksiz malaka oshirish jarayonini takomillashtirish;
- o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.

Bugungi kunda xalqaro ta’lim makonida kadrlar sifatini oshirishning quyidagi innovatsion indikatorlaridan keng foydalanib kelinmoqda:

Jumladan, ta’limni tashkil etish madaniyatini shakllantirish. Oliy ta’lim muassasalarida professor-o‘qituvchi va talabaning ta’lim madaniyatini rivojlantirish maqsadida ta’lim dasturi, pedagogik kompetensiyalar hamda baholash usullari doimiy ravishda takomillashtirilib, yangilanib borilishi ko‘zda tutiladi. Uzviy ravishda ta’lim talablarini mehnat bozorining o‘zgarayotgan ehtiyojlari bilan integratsiya qilish va kasbiy talablarni ta’lim jarayoniga uzviy ravishda tatbiq etilishini ta’minlaydi.

Pedagogik kadrlarning kasbiy salohiyati ta’lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Umumta’lim maktablarida malakali va fidokor pedagoglarning faoliyati ta’lim samaradorligini belgilaydi. Innovatsion metod va zamonaviy yondashuvlar o‘qituvchilarga doimiy o‘sish, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash imkonini beradi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning chuqur bilim olishi va sohaning zamon talablari asosida rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada, pedagoglar jamiyatda ilg‘or va innovatsion mutaxassis sifatida shakllanadi.

Ijtimoiy hamkorlik va xizmat ko‘rsatishni rag‘batlantirish. O‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro bir-birlarining kasbiy faoliyatlarini kuzatish, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, tajribali pedagoglarning kasbiy rivojlanish yo‘nalishi va o‘qitish metodikalarini o‘zining kasbiy rivojlanish yo‘lida maqsadli foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bizningcha, o‘qituvchida kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirishda kasbiy faoliyatga akmeologik yondashuv o‘z ichiga bir nechta ko‘nikmalarni egallashni qamrab oladi: texnik ko‘nikmalar, shaxslararo ko‘nikmalar, xalqarolashuv, tadbirkorlik, innovatsiyalar, jamoatchilik ishtiroki va xizmat ko‘rsatishni o‘rganishni o‘z ichiga olgan integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi. Ushbu strategiyani qabul qilish orqali yuqori malakali, innovatsiyalarga moslashuvchan, innovatsion yondashuvga ega, kasbiy ijtimoiylashgan va jamiyatga o‘z hissasini qo‘shishga tayyor, o‘zida kasbiy identifikatsiya qilishni to‘liq namoyon etadigan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Akmeologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimi”** deb nomlangan uchinchi bobida akmeologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning funksional modeli, akmeologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishga doir kasbiy faoliyatini tashkil etish tizimi, akmeologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Akmeologiyaning asosiy tushunchalari “akme” va “akmeologik salohiyat” dir. Akme – bu inson hayotining ma’lum bir sohasida erishgan rivojlanish xususiyatlarining maksimal darajasi. Akmeologik potentsial – bu ma’lum bir subyektning tanlangan sohada maksimal rivojlanish darajasiga erishishga imkon beradigan ichki resurslari to’plami.

Akmeologik yondashuv – akmeologik muammolar va vazifalarni yechish imkonini beruvchi, metodlar va usullar, tamoyillar majmuini tushuntiruvchi akmeologik kategoriyalar umumlashmasi hisoblanadi. Akmeologik yondashuv ta’lim mazmuniga, ta’lim texnologiyalari, o’quvchilarni tarbiyalash va o’qitishga, ta’lim muassasasini boshqarishni rivojlantirish, ta’limning barcha subyektlarida tizimlashtirilgan bilish motivlari, ta’lim olish ichki ehtiyojga aylanishi, ijodiy tafakkurning asosiy boshlovchiligi evaziga ta’lim sifatini oshishiga hissa qo’shadi.

Kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish texnologiyasi o’qituvchining kasbiy faoliyatni “akme” darajaga aylantirish jarayoni sifatida tashkil etilib, bunda o’qituvchining kasbiy identifikatsiya qilishini rivojlantirishning pedagogik shartlari quyidagicha bo’ladi:

o’zlashtirilgan ijtimoiy tajribalarni qayta ishlash, izlanuvchanlik va ijodkorlik faoliyatlarida namoyon bo’ladigan aniq ifodalangan kasbiy yo’naltirilganlik, bilimlarni boyitib borishdagi faollik;


kasbiy faoliyatda ko’p uchraydigan har qanday nostandart vaziyatlarda mustaqil ravishda qaror qabul qila olish, shuningdek, yaxlit jarayonning barcha voqea va hodisalarini, dalillarini tahlil qila bilishga asos yaratadigan ilmiy tafakkurni rivojlantirish;

mahalliy va xorijiy pedagogik tajribalarni egallanganlik, ta’lim berish jarayonini anglanganlik, o’zining pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirish, o’zini-o’zi rivojlantirishga yo’nalganlik, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish kabi keng doirada o’z ichiga olgan mustaqil rivojlanish tizimini tashkil etish;

shaxsiy va kasbiy imkoniyatlarini kasbiy yutuqlarni boyitishga yo’naltirish orqali o’zida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish shart-sharoitlarini belgilash.

O’qituvchining to’laqonli mutaxassis sifatida rivojlanishi uchun kasbiy faoliyatning turli bosqichlarida zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltiradigan, kasbiy faoliyat natijasi sifatida o’qituvchining shaxsiy va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishni ta’minlaydigan pedagogik tizimni ishlab chiqishga kasbiy faoliyat jarayonining pedagogik asoslari, uning barcha elementlarini tubdan yangilash orqali erishiladi.

Tadqiqot ishida akmeologik yondashuv asosida boshlang’ich sinf o’qituvchilarida kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirishning funksional modeli ishlab chiqilgan bo’lib, ushbu funksional model – kasbiy faoliyatning samaradorligini oshirish muammosini qismlarga ajratgan holda o’rganilishi, umumiy maqsadga yo’naltirilgan holda bosqichma-bosqich kasbiy faoliyat natijalariga erishish hamda yaxlit bir butun holatda jarayonni yuritish va nazorat qilish imkoniyatidan foydalangan holda umumiy maqsad va natijaga erishishdir (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Akmeologik yondashuv asosida o'qituvchi kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishning funksional modeli**

Mazkur model boshlang'ich sinf o'qituvchilarida akmeologik yondashuv asosida kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni amalga oshirish samaradorligi maxsus rivojlantiruvchi dastur va pedagogik jamoa bilan tashkil etiladigan o'quv-seminarlariga bog'liq bo'ladi. Kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishda o'qituvchilarga o'z pedagogik faoliyatlariga akmeologik yondashish orqali uning kasbiy "akme"sini shakllantirishga erishish uchun kasbiy rivojlanish jarayonini dolzarblashtirish asosida ularga ta'sir ko'rsatishga erishiladi.


Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'zini-o'zi kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tizim mazmunida quyidagi texnologiyalardan foydalanildi (2-jadval):

**2-jadval**

**Akmeologik yondashuv asosida "To'rt pog'anali usul" texnologiyasini qo'llash orqali o'zini-o'zi kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirish imkoniyatlari**

<b>Bosqich</b>	<b>Mazmuni</b>	<b>Amalga oshirish shakllari</b>
1-pog'ona: Tushuntirish – qiziqtirish – ma'lumot berish	O'qituvchiga kasbiy identifikatsiya mohiyati, uning ahamiyati va akme cho'qqisiga erishish zarurligi tushuntiriladi, qiziqtiriladi.	Seminar-treninglar, suhbatlar, ma'ruzalar orqali o'qituvchiga kasb qadriyatlariga haqida ma'lumot beriladi. O'zini-o'zi kasbiy identifikatsiya qilish uchun real misollar va ilg'or pedagoglar tajribalari namuna sifatida beriladi.
2-pog'ona: Namoyish qilish	O'zini-o'zi kasbiy identifikatsiya qilishning rivojlanganlik namunasi sifatida ilg'or o'qituvchilar faoliyati ko'rsatiladi.	"Ustoz-shogird" tizimi asosida yosh o'qituvchilar tajribali pedagoglar darslarini kuzatadilar. Innovatsion darslar, ochiq mashg'ulotlar, metodik yig'ilishlar orqali o'z imkoniyatlarini belgilash asosida o'zini-o'zi identifikatsiya qiladi.
3-pog'ona: Taqdim qilish	O'qituvchi o'z kuzatishlari, o'rganishlari natijasida o'zlashtirgan yondashuvlarni, metodlarni va o'qitish metodikalarini amaliyotda qo'llab ko'radi.	Tajribali ustoz rahbarligida yosh pedagog mustaqil dars o'tadi, refleksiya asosida xatolar tahlil qilinadi, pedagogik vaziyatlarni hal etish usullarining samaradorligi asosida o'z faoliyatini tahlil qiladi.
4-pog'ona: Mashq qilish	O'qituvchi mustaqil ravishda kasbiy faoliyatni innovatsion usullar bilan boyitib, akme cho'qqisiga intiladi.	Mustaqil dars ishlanmalarini yaratadi, yangi metodlarni tatbiq etadi, reflektiv kundalik yuritadi. Tajribasini seminar, konferensiya va metodik uchrashuvlarda taqdim etadi, jamoa oldida tajribasining ma'qullanganligi orqali kasbiy yutuqlarini baholaydi.

Shuningdek, tadqiqotda kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tizim ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu funksional tizim quyidagilarni qamrab oladi: kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish funksiyalari, rivojlanish mezonlari, rivojlantirish mexanizmlari hamda rivojlanish va namoyon bo'lish darajalari (3-rasmga qarang).



**3-rasm. Akmeologik yondashuv asosida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimi**

“O‘qituvchilarni kasbiy rivojlanishida akmeologik qo‘llab-quvvatlash” nomli maxsus dasturni o‘qituvchilar bilan individual va guruhli mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi. Dasturni amalga oshirish shakllari sifatida quyidagilardan foydalanildi: mahorat darslari, kasbiy mahorat musobaqalari, turli darajadagi (shahar, tuman, maktab ichidagi) o‘qituvchilarning metodik birlashmalariga tashrif buyurish, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ilmiy seminarlarda ishtirok, psixologik marafonlar, psixologik va psixoterapevtik mashg‘ulotlar, pedagogik madaniyat kunlar, kasbiy faoliyatni nazorat qilish.

Umuman, tadqiqotda keltirilgan akmeologik yondashuv va tamoyillar hamda metodlar o‘svuvchi-o‘zgaruvchi ko‘rsatkich sifatida pedagogik shart-sharoit, muhit, pedagogik jamoadagi ijtimoiy munosabatlar, o‘qituvchining kasbiy individualligi va boshqa omillarga bog‘liq ravishda muayyan o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Mazkur tamoyillar va metodlar o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatda kasbiy va shaxsiy sifatlarini akmeologik takomillashishi natijasida kasbiy identifikatsiya qilishini rivojlanishiga ijobiy ta‘sir qilishi tadqiqotning pedagogik tajriba-sinov ishlari davrida dalillandi.

Dissertatsiyaning “**Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida akmeologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirish samaradorligini aniqlash maqsadida tashkil etilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari mazmuni, vazifalari, pedagogik tajriba-sinov natijalari va samaradorlik ko‘rsatkichlari bayon etilgan.

Tadqiqot ishi respondentlari sifatida Farg‘ona, Andijon, Xorazm va Namangan viloyatlari umumta‘lim maktablarining 434 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tanlab olindi. Jumladan, Xorazm viloyati maktablarining 96 nafar, Namangan viloyati maktablarining 122 nafar, Andijon viloyati maktablarining 132 nafar, Farg‘ona viloyati maktablarining 84 nafar, jami 434 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ishtirok etishdi.

Ish quyidagi tarzda tashkil etildi: ishning birinchi (diagnostik) bosqichida ko‘rib chiqilgan nazariy manbalar asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy identifikatsiya qilishining rivojlanganligini diagnostika qilishda pedagogik kuzatish, suhbat, qiyosiy tahlil qilish, anketa savolnomasi hamda psixodiagnostik “Kasbiy identifikatsiya darajasini o‘rganish” nomli metodikadan foydalanildi. Bu diagnostik metodlar o‘qituvchilarda kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirish bo‘yicha pedagogik imkoniyatlar tizimini qo‘llashdan avval va keyin amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda ya‘ni asoslovchi, shakllantiruvchi va yakunlovchi bosqichlarda olib borilgan bo‘lib, u 2022-2023, 2023-2024, 2024-2025- o‘quv yillarini o‘z ichiga qamrab olgan.

Asoslovchi, shakllantiruvchi va yakunlovchi bosqichlarda olib borilgan tajribalar akmeologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimi bo‘yicha samarali yo‘llarini oshganlik darajasi quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan mezonlar bo‘yicha aniqlandi. Akmeologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimi asosida tajriba boshidagi (Tb) va tajriba oxiridagi (To) ma‘lumotlarni umumiy jadvalini keltiramiz (3-jadvalga qarang).

### 3-jadval

#### Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy identifikatsiya qilishini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik tizimi bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining umumlashgan tajriba natijalari

Mezonlar		Tajriba guruhi (Respondentlar soni -221)						Nazorat guruhi (Respondentlar soni -213)					
		Yuqori		O'rta		Past		Yuqori		O'rta		Past	
		Tb	To	Tb	To	Tb	To	Tb	To	Tb	To	Tb	To
1	Innovatsion-pedagogik izlanish	52	98	87	104	82	19	48	48	77	93	88	72
2	Refleksiv-tahliliy faoliyat	54	95	84	106	83	20	47	50	82	94	84	69
3	Kasbiy-akmeologik rivojlanish	55	96	85	108	81	17	49	51	78	90	86	72
4	Kasbiy yutuqlarni boshqarish	51	99	88	106	82	16	44	47	79	91	90	75
Umumiy o'rtacha		53	97	86	106	82	18	47	49	79	92	87	72

*Izoh:* Tb – tajriba boshida, To – tajriba oxirida.

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi o'qituvchilarning nazorat guruhi o'qituvchilariga nisbatan kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish ko'nikmalarining rivojlanganligi aniqlandi.

Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosa tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi.

Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirishning pedagogik tizimi asosidagi so'rovnomalar yuzasidan shu bobda berilgan statistik ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish uchun umumlashgan tajriba boshidagi (Tb) va tajriba oxiridagi (To) javoblari viloyatlar kesimida keltirilgan (4-jadvalga qarang).

### 4-jadval

#### Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy identifikatsiyasini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik tizimi bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining umumlashgan tajriba boshidagi (TB) va tajriba oxiridagi (TO) natijalari (viloyatlar kesimida)

Tajriba - sinov obyektlari	Respondentlar soni	Tajriba guruhlar						Respondentlar soni	Nazorat guruhlar					
		Yuqori		O'rta		Past			Yuqori		O'rta		Past	
		Tb	To	Tb	To	Tb	To		Tb	To	Tb	To	Tb	To
Xorazm viloyati	49	11	21	19	24	19	4	47	10	11	17	17	20	19
Farg'ona viloyati	43	10	19	15	21	18	3	41	9	10	14	15	18	16
Andijon viloyati	67	18	30	27	32	22	5	65	15	16	25	31	25	18
Namangan viloyati	62	14	27	25	29	23	6	60	13	12	23	29	24	19
Umumiy	221	53	97	86	106	82	18	213	47	49	79	92	87	72

3 -jadvaldagi natijalar tahlil qilinib, sinov va nazorat guruhleri taqqoslandi. Mezonlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari asosida tajriba-sinov ishlarining yakuniy o'rtacha hisob-kitobi viloyatlar kesimida keltirildi (5-jadvalga qarang).

**5-jadval**

**Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy identifikatsiyasini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik tizimi bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy solishtirma tahlili (viloyatlar kesimida)**

Tajriba guruhi	Tajriba va sinov obyektlari	Yuqori	O'rta	Past	Jami
	Xorazm viloyati	21	24	4	<b>49</b>
Farg'ona viloyati	19	21	3	<b>43</b>	
Andijon viloyati	30	32	5	<b>67</b>	
Namangan viloyati	27	29	6	<b>62</b>	
<b>Jami</b>	<b>97</b>	<b>106</b>	<b>18</b>	<b>221</b>	
Nazorat guruhi	Tajriba va sinov obyektlari	Yuqori	O'rta	Past	Jami
	Xorazm viloyati	11	17	19	<b>47</b>
Farg'ona viloyati	10	15	16	<b>41</b>	
Andijon viloyati	16	31	18	<b>65</b>	
Namangan viloyati	12	29	19	<b>60</b>	
<b>Jami</b>	<b>49</b>	<b>92</b>	<b>72</b>	<b>213</b>	

Yuqoridagi jadvallardan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiya qilishni rivojlantirishning pedagogik tizimi bo'yicha mezonlarining barchasida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan.

Mezonlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari asosida tajriba-sinov ishlarining yakuniy hisob-kitobi amalga oshirildi (6-jadvalga qarang).


**6-jadval**

**Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy identifikatsiyasini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik tizimi bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining yakuniy dinamikasi (son va foizlarda)**

Guruhlar	O'qituvchilar soni	O'zlashtirish natijalari (% da)		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhlarida	221	97 nafar 44%	106 nafar 48%	18 nafar 8%
Nazorat guruhlarida	213	49 nafar 23%	92 nafar 43%	72 nafar 34%

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi o'qituvchilarning nazorat guruhi o'qituvchilariga nisbatan kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishining rivojlanganligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlangan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatidan to'g'ri samarali

olib borilganini tasdiqlaydi. Takidlovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Student va Pearson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd yetilgan ko'rsatkichlarni aniqlash va obyektiv baholash imkoniga ega. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko'rsatkichlarni tanlanmalar sifatida belgilanib yuqori, o'rta va past darajalar bo'yicha variatsion qatorlar hosil qilindi. Bu diagrammada quyidagi ko'rinishni oldi (4-rasmga qarang).



**4-rasm. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy identifikatsiyasini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik tizimining yakuniy diagrammasi.**

4-rasmdan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan yuqori ekan.

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun o'rta qiymat, tanlanma dispersiya, variatsiya ko'rsatkichlari, Studentning tanlanma mezon, Student mezon asosida erkinlik darajasi, Pearsonning muvofiqlik mezon va ishonchli chetlanishlari topildi (7-jadvalga qarang).

**7-jadval**

**Boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy identifikatsiyasini akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik tizimi bo'yicha tajriba-sinov natijalarining statistik ko'rsatkichlari**

$\bar{X}$	$\bar{Y}$	$S_x^2$	$S_y^2$	$C_x$	$C_y$	$T_{x,y}$	$K$	$X^2_{n,m}$	$\Delta_x$	$\Delta_y$
2,36	1,89	0,3904	0,5579	1,77	2,72	7,12	180	49,04	0,08	0,10

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lumki,  $\bar{X}=2,36$ ;  $\bar{Y}=1,89$ ;  $\Delta_x=0,08$ ;  $\Delta_y=0,10$  ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

O'qitish samaradorligi ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{yco} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,36 - 0,08}{1,89 + 0,10} = \frac{2,28}{1,99} \approx 1,15 > 1;$$

Bilish darajasini ko'rsatkichi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{ood} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,36 - 0,08) - (1,89 - 0,10) = 2,28 - 1,79 = 0,49 > 0;$$

Olingan natijalardan rivojlanish samaradorligini baholash mezonini birdan kattaligi bilan va rivojlanganlik darajasini esa baholash mezonini noldan kattaligini ko'rish mumkin. Yuqoridagi statistik tahlillardan ma'lum bo'ldiki, akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni rivojlantirishning pedagogik tizimi bo'yicha tajriba guruhlaridagi rivojlanish nazorat guruhlaridagi rivojlanishdan (15,7% ga) yuqori ekan.

Demak, olib borilgan tajriba-sinov ishlari akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimi bo'yicha pedagogik va kasbiy faoliyat samaradorligi oshishini tasdiqladi.

## XULOSA

Akmeologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Akmeologik yondashuvning boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishini rivojlantirishdagi roli asoslab berildi. Tadqiqot davomida ushbu yondashuvning intellektual, hissiy-irodaviy, amaliy, kommunikativ va tashkilotchilik funksiyalarini uyg'unlashtirgan holda boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'z kasbiy faoliyatini tizimli tahlil qilish, hamkasblarining erishgan yutuqlari asosida o'z imkoniyatlarini baholash, belgilangan maqsad va amalga oshirilayotgan ishlarning o'zaro muvofiqligini aniqlash imkonini beruvchi o'zini-o'zi tahlil qilish, o'zini-o'zi baholash va o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'siri nazariy va amaliy jihatlarini asoslash imkonini bergan.

2. Kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish jarayonini akmeologik yondashuv asosida tashkil etish bosqichlari aniq belgilanib, bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi DTS, Malaka talablari va kasb standartlariga tayangan holda istiqbolli rejalarni tuzadi, yilning har bir choragida belgilangan rejaga muvofiq amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar ko'rsatkichlarini choraklar kesimida qiyosiy tahlil qiladi. Bu qiyosiy tahlil natijalariga asoslanib kasbiy rivojlanish sur'atini

aniqlash imkoniga ega bo'ladi. Tadqiqot ishida tanlab olingan metod, vosita va shakllar ushbu jarayonni tizimli va samarali amalga oshirishini ta'minlash asosida kasbiy identifikatsiyalash jarayonini faollashtirishga erishilgan.

3. Pedagogik tizimning zamonaviy shakli sifatida akmeologik yondashuv asosidagi model taklif etildi. Unda rivojlantirish dasturi, yangi texnologiyalar, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, kasbiy refleksiya va diagnostika vositalari yagona kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish tizimiga birlashtirildi. Bu tizim o'qituvchilarning kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish orqali uzluksiz kasbiy o'sish trayektoriyasini belgilashga erishilgan.

4. Ishlab chiqilgan dastur mazmuni va kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni rivojlantirish texnologiyasi akmeologik yondashuvga mos ravishda modifikatsiyalanib, uning nazariy asoslari, metodik yo'nalishlari va amaliy tatbiq mexanizmlari boshlang'ich ta'lim mazmuniga moslashtirildi. Maxsus dasturda belgilangan rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, psixologik treninglar, didaktik mashqlar, pedagogik kuzatish, suhbat, anketa savolnomalari kabi metodlar orqali boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishga oid kompetensiyalari, refleksiv ko'nikmalar va kasbiy o'sishga nisbatan tashabbuskorlik kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

5. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida akmeologik yondashuv asosida kasbiy o'zini-o'zi qilishni rivojlantirishning innovatsion ta'lim texnologiyalari va yangi o'qitish shakllari kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishda asosiy mexanizm sifatida joriy etildi. Ular orqali o'qituvchining kasbiy identifikatsiya qilish borasidagi nazariy bilimlari bilan bir qatorda, amaliy kompetensiyalari ham mustahkamlandi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishda raqamli platformalar, elektron jurnallar, onlayn dasturlar va jurnallardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni o'z ichiga olgan yaxlit va tizimli yondashuvni mujassamlashtiradi.

6. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish algoritmi sifatida malaka oshirish, o'zini-o'zi baholash, kasbiy refleksiya va doimiy takomillik tamoyillari asosida shakllanuvchi uzluksiz rivojlanish jarayoni asoslanib, bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisi tajribali pedagoglarning dars mashg'ulotlarini, darsdan tashqari faoliyatlarini kuzatish orqali o'zining faoliyatini tahlil qilish mexanizmini yo'lga qo'yadi. Bunday kasbiy faoliyatni nazorat qilish va baholash mexanizmlari o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy yutuqlariga erishish ehtimoli ortgan.

7. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni baholash mezonlari va diagnostik tizimi ishlab chiqilib, tajriba-sinov jarayonlarida qo'llanildi. Ushbu tizim kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishning rivojlanish bosqichlarini aniqlash, rivojlanish sur'atlarini monitoring qilish va olingan natijalarga tayanib o'qituvchilarning kasbiy rivojlanish trayektoriyasini ishlab chiqish hamda o'qituvchilar o'rtasida o'zaro pedagogik faoliyatni kuzatish, "Ustoz-shgird" tizimini akmeologik yondashuv asosida yo'lga qo'yish, kasbiy rivojlanish maydonlarini tashkil etishning metodologik asosini ishlab chiqish

boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishda yuqori samara berishi tajriba-sinov ishlari yakunida yaqqol namoyon bo'lgan.

8. Statistika tahlil natijalari, akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan rivojlantirish dasturi boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish darajasini nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhida 15,7% ga oshirganligini ko'rish mumkin. Bu raqam tadqiqot ishida ishlab chiqilgan funksional model, rivojlantirish texnologiyasi, akmeologik yondashuv, metod, vosita va shakllarning ilmiy asoslashga xizmat qildi va u o'zining pedagogik amaliyotda sinovdan muvaffaqiyatli o'tganligi tasdiqlandi.

9. Ishlab chiqilgan funksional model kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni uzviy tizimga aylantirib, boshlang'ich sinf o'qituvchisining motivatsion, reflektiv, kommunikativ, baholovchi va operatsion imkoniyatlarini kompleks tarzda rivojlantirishga xizmat qildi. Model orqali kasbiy o'zini-o'zi baholash, kasbiy salohiyati va imkoniyatlarini o'lchash, kasbiy maqsadlari va yutuqlarini o'zaro qiyosiy tahlil qilish, o'qituvchilar o'rtasida kasbiy rivojlanish sohasini aniqlash orqali o'zlarining didaktik va metodik imkoniyatlarini rivojlantirish ehtiyojini uyg'otish imkoniyatlarini kengaytirdi.

10. Kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish tizimining akmeologik yo'naltirilganligi boshlang'ich sinf o'qituvchisining individual salohiyati, ijtimoiy-madaniy faoliyat ko'rsatish qobiliyati va kasbiy refleksiya orqali o'zini kasb egasi sifatida anglash imkonini kengaytirdi. Bu tizim orqali o'qituvchilar innovatsion fikrlovchi, mas'uliyatli va o'z ustida ishlovchi yetuk mutaxassis sifatida shakllandi. Ushbu kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni rivojlantirishning pedagogik tizimini fan o'qituvchilari o'rtasida ham amaliyotga tatbiq etish ta'limning umumiy sifat ko'rsatkichini oshirishga xizmat qildi.

11. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni rivojlantirishda pedagogik shart-sharoitlar tizimi (internet tarmog'i, innovatsion axborot kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuterlar, smart doskalar, moddiy-texnik bazasi) hamda akmeologik taraqqiyotga yo'naltirilgan muhitni yaratishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qildi. Ushbu tizim doirasida o'qituvchilar tomonidan mentorlik faoliyatini tashkil etish, kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish imkonini beruvchi ilg'or texnologiyalar, reflektiv tahlil dasturlari va kasbiy harakatlarni baholash platformalari boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni mustahkamladi.

12. Kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish jarayoni, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy motivatsiyasi, shaxsiy mas'uliyati, professional ong va ijtimoiy ahamiyatni uyg'unlashtirish orqali pedagogik faoliyatni madaniy-ma'naviy rivojlantiruvchi mezon sifatida qabul qilish darajasiga olib chiqdi. Bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchisining jamiyatdagi maqomini mustahkamlashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oliy pedagogik ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining pedagogik amaliyoti natijalarini kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish natijalariga ko'ra baholash tizimini ishlab chiqish kerak.

2. Tadqiqotda ishlab chiqilgan kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus dastur va diagnostik tizim komponentlarini fan o'qituvchilari uchun modifikatsiyalash maqsadga muvofiq.

3. Kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishni mustahkamlash uchun umumta'lim maktablarida o'qituvchilar kasbiy yutuqlarini tizimli va ochiqlik tamoyili asosida monitoring qilish platformalarini joriy etish lozim.

4. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida "Pedagogik mahorat" fanining mazmuniga o'qituvchilarning kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilish orqali faoliyatini tahlil qilishga doir materiallarni singdirish zarur.

5. Oliy pedagogik ta'lim muassasalarining barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida "Pedagogik akmeologiya" fanini tanlov moduli sifatida o'qitish orqali bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy o'zini-o'zi identifikatsiya qilishga o'rgatish asosida kasbiy "akme"ga erishish strategiyalarini ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish lozim.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ  
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**АБДУСАМИЕВ ДИЛМУРОД АБДУГАНИ УГЛИ**

**ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ  
ИДЕНТИФИКАЦИИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА  
ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА**

**13.00.01 – Теория педагогики. История педагогических учений**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Тема диссертации доктора наук(DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2025.3.DSc/Ped695

Диссертация выполнена в Наманганском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском и английском (разуме)) на веб-странице Научного совета (www.namspi.uz/uz научном совете) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz)

**Научный консультант:**

**Турсунбай Файзуллаев**

доктор политических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Темиров Набижон Сабирович**

доктор педагогических наук (DSc), профессор

**Артикова Мухайё Ботралиевна**

доктор педагогических наук (DSc), профессор

**Ходжаев Бегзод Худойбердиевич**

доктор педагогических наук (DSc), профессор


**Ведущая организация:**


**Джизакский государственный педагогический университет**


Защита диссертации состоится « 9 » 12 2025 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 при Наманганском государственном педагогическом институте. (Адрес: 160119, город Наманган, улица Уйчинская, д.316. Тел.: (998)69-211-11-69; faks: (998)69-211-11-69; e-mail: info@namspi.uz.)


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного педагогического института (зарегистрирована за № 281). Адрес: 160119, город Наманган, улица Уйчинская, д.316. Тел.: (998) 69 211-11-69;

Автореферат диссертации разослан «26» 11 2025 года.  
(протокол рассылки № 23 от «26» 11 2025 года)



  
**М.Р.Кодиронов**  
председатель Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.х.н., доцент

  
**С.Х.Муталов**  
учебный секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.ф.п.н. (PhD), доцент

  
**С.Х.Абдуллаев**  
председатель научного семинара  
при Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Во всем мире в результате реформ, проводимых на пути развития системы образования, и коренных изменений в подходах к подготовке кадров, всё более возрастает потребность в учителях, способных эффективно применять в педагогическом процессе акмеологический подход и инновационные технологии. Эффективность внедряемых в образовательный процесс инноваций напрямую зависит от уровня развития профессиональной идентификации учителя. Сорбоннская декларация (Sorbonne Declaration), инициатива «Образование для всех» (Education For All (EFA)), Цели развития тысячелетия (Millennium Development Goals (MDGs)), Всемирный образовательный форум (World Education Forum), Лиссабонские конвенции, международная программа оценки преподавания и обучения TALIS (Teaching and Learning International Survey), а также программа Erasmus+ (Funded by the European Union) играют важную роль в определении приоритетных направлений подготовки учителей с профессиональной идентификацией на основе акмеологического подхода. В частности, в рамках реализации международной программы TALIS актуальным становится исследование вопросов обеспечения вариативности активных и инновационных форм обучения в начальном образовании, а также развития профессиональной самоидентификации учителей начальных классов на основе акмеологического подхода.

В ряде развитых стран мира ведутся последовательные научно-исследовательские работы, направленные на создание условий для формирования компетенций и профессиональных качеств учителей, совершенствование этого процесса в научно-методическом плане, а также систематизацию цифровой образовательной среды. Кроме того, особое внимание уделяется проблемам развития профессиональной идентификации учителей на основе комплексного изучения структурных компонентов педагогической деятельности, в данном направлении проводятся научные исследования и глубокий анализ. Развитие профессиональной идентификации у учителей начальных классов посредством акмеологического подхода, в частности, через совершенствование их профессиональных и личностных качеств, требует разработки педагогической системы подготовки учителей, которая бы включала формирование национального мировоззрения, профессионального самосознания, саморазвития, а также развитие эргономических навыков. Такая система должна обеспечивать формирование у будущих педагогов умений эффективно организовывать педагогическую деятельность на основе стратегии SMSC (Spiritual – духовное, Moral – нравственное, Social – социальное, Cultural – культурное) воспитания<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> John Viner. Providing for Pupils' SMSC Development: Identify opportunities and implement a whole school strategy. – UK, Optimus education. – 2013

В Республике Узбекистан на современном этапе развития системы школьного образования выдвигаются качественно новые требования, направленные на модернизацию содержания системы образования, модификацию методов обучения и обеспечение их эффективности. В Указе Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева «О Концепции развития системы народного образования до 2030 года», в качестве основных стратегических направлений определены «коренной пересмотр содержания непрерывного образования, а также подготовка, переподготовка и повышение профессионального мастерства педагогов высокого уровня с выводом данного процесса на качественно новый этап»<sup>1</sup>. Для эффективного выполнения данных задач возникает необходимость целенаправленного и последовательного применения акмеологического подхода в процессе осознания профессиональной самобытности учителей начальных классов и дальнейшего развития их профессиональной деятельности. Данный процесс представляет собой важную научно-практическую задачу, заключающуюся в создании педагогической системы, обеспечивающей всестороннее формирование у учителей начальных классов репродуктивного, продуктивного, частично поискового и креативного уровней профессиональной деятельности, а также в дальнейшем обогащении её дидактических возможностей. Данная жизненная необходимость послужила толчком к данной исследовательской работе.

Данная диссертационная работа, в определенной степени, служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан: от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы»<sup>2</sup>; от 29 апреля 2019 года № УП-5712 «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года»; в Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 21 июня 2024 года № ПП-231 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы непрерывного профессионального развития работников организаций дошкольного и школьного образования»; от 21 июня 2022 года № ПП-289 «О мерах по повышению качества педагогического образования и дальнейшему развитию деятельности высших образовательных учреждений, подготавливающих педагогические кадры»; от 26 сентября 2017 года № ПП-3289 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки педагогических кадров, переподготовки и повышения квалификации работников народного образования», а также других нормативно-правовых документах, послуживших теоретической, научной и методологической основой данного диссертационного исследования.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данная исследовательская работа

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование и реализация системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информированного общества и демократического государства».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации.** В системе современного образования во многих ведущих научных центрах мира, а также в рамках международных инициатив и программ, в том числе, результаты обучения (Learning Outcomes), гарантия качества образования (Quality Assurance), Европейский реестр агентства по обеспечению качества образования (EQAR), крупнейшее международное исследование TALIS (Teaching and Learning International Survey), направленное на оценку деятельности учителей, условий их труда и образовательной среды в школах, программа Erasmus+ (Funded by the European Union), поддерживающей проекты, сотрудничество, мероприятия и мобильность в сферах образования, обучения, молодежи и спорта, международная образовательная программа STEAM (S – Science (Fan), T – Technology (texnalogiya), E – Engineering (Muhandislik), A – Art (San'at), M – Mathematics (Matematika)), все они проводят исследования, направленные на совершенствование методологических и научно-методических основ развития профессиональной идентификации учителей, разработку педагогических систем акмеологического подхода к организации эффективной профессиональной деятельности и объективную оценку её результатов.

По проблеме совершенствования теоретических и практических основ развития профессиональной идентификации учителей начальных классов на основе акмеологического подхода получены следующие научные результаты: В рамках деятельности Международного центра исследований развития (International Development Research Centre – IDRC) по программе GPE – KIX (Глобальное партнёрство по обмену знаниями и инновациями в сфере образования), а также по программе KOICA (Корейское агентство международного сотрудничества) в ведущих высших учебных заведениях Южной Кореи созданы возможности для повышения профессионального потенциала учителей государственных школ. Также в рамках деятельности организации ETS (Educational Testing Service) реализуются международные программы оценки и развития академических и профессиональных компетенций, включая TOEFL (Test of English as a Foreign Language), SAT I и II (Scholastic Aptitude Test), GRE Subject Test (Graduate Record Examinations), ACT (American College Testing), GMAT (для магистратуры), GPA (Grade Point Average).

В настоящее время научные исследования, направленные на совершенствование профессиональной квалификации и личностных качеств педагогов, приобретают широкий размах. В рамках данных исследований разрабатываются различные методические подходы, направленные на повышение уровня профессионального самосознания учителей. В частности, содержательное и инновационное обогащение образовательного процесса

сочетается с внедрением передового опыта в профессиональное развитие педагогов на основе акмеологических теорий.

